

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MAJIDOV JASUR BAXTIYAROVICH**

**PROFESSIONAL FUTBOL JAMOALARIDA O‘ZARO  
MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
psychological sciences**

**Majidov Jasur Baxtiyarovich**

Professional futbol jamoalarida o'zaro munosabatlarning psixologik  
xususiyatlari.....3

**Мажидов Жасур Бахтиярович**

Психологические особенности взаимоотношений в профессиональных  
футбольных командах.....21

**Majidov Jasur Baxtiyarovich**

Psychological features of relationships in professional football teams.....41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MAJIDOV JASUR BAXTIYAROVICH**

**PROFESSIONAL FUTBOL JAMOALARIDA O‘ZARO  
MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/P56 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Abdurasulov Rustam Abduraimovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Hayitov Oybek Eshboevich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Baratov Xumoyun Sharifovich**  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.A.Akramova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, psixologiya fanlari  
doktori (DSc), professor

**N.B.Atabayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, psixologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

**Z.T.Nishonova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
psixologiya fanlari doktori, professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda futbol inson faoliyatining eng ommalashgan turlaridan biri sifatida futbolchi shaxsini irodaviy tarbiyalash, faoliyati samaradorligini oshirishda jismoniy va psixologik tayyorgarligidan tashqari kuchli ijtimoiy hodisa sifatida jamoaviy o‘zaro birdamlikni talab etadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi Bayonotida «...bolalarni sport orqali jismoniy, aqliy va ruhiy salomatligini mustahkamlash muhimligi...»<sup>1</sup>ga alohida urg‘u berilganligi besabab emas. Bu borada jahon olimlari tomonidan futbol jamoalarida psixologik muhitni yaxshilash masalalarini ilmiy-nazariy o‘rganish ob‘ekti sifatida professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlari ta’siri muammosiga e’tibor qaratilmoqda

Jahon oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida sportning nafaqat inson salomatligi, psixologik holatini, uning irodaviy hamda axloqiy sifatlarini shakllantirish, sportchilarni tarbiyalashning psixologik omillarini o‘rganish borasida ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada professional futbol jamoalaridagi psixologik muhit, futbolchilarning o‘zaro munosabatlarining holati, murabbiy-futbolchi munosabatining jamoa muhiti va muvaffaqiyatiga ta’siri rolini ko‘rsatishga doir ijtimoiy-psixologik omillar va psixologik ta’sir usullarini ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda o‘zbek futbolini rivojlantirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «...yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ommaviy va jamoaviy sportga qamrab olish, olin va chekka qishloqlarda bolalar va o‘smirlar sport maktablarini ko‘paytirish...»<sup>2</sup> ustivor vazifalar sifatida belgilanganligi professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish uchun mazkur tadqiqot muhim asos bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 1 maydagi O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019 yil 4 dekabrda PF-5887-son «O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son «O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021 yil 6 apreldagi PF-6199-son «Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2023 yil 7 apreldagi PQ-115-son «Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda boshqa meyoriy hujjatlarda

---

<sup>1</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2010 yil 18 oktyabrda 65/4-sonli «Sport – ta’lim, sog‘liqni saqlash, taraqqiyot va tinchlikni targ‘ib qilish vositasi sifatida» to‘g‘risidagi Qarori

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 декабрдаги “Ўзбекистонда футболни ривожлантиришни мутлақо янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5887-сон Фармони. – <https://lex.uz/docs/4631208> (Электрон ресурс. 2020 йил 8 майда мурожаат этилган)

belgilangan strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublika psixolog olimlaridan R.A.Abdurasulov, R.Z.Gaynutdinov, Z.Gapparov, O.E.Hayitov, Z.E.Gaziyeva, E.N.Sirliyev va boshqalar sport psixologiyasi yo‘nalishida sportchining psixologik xususiyatlari, psixologik tayyorgarligi, sport mashg‘ulotlarining sportchi shaxsi shakllanishiga ta’siri, sport jamoalarida psixologik muhit va shaxslararo munosabat muammolarini ilmiy tadqiq etishgan bo‘lsa, o‘quvchi-yoshlar tarbiyasining psixologik-pedagogik xususiyatlari, shaxsni shakllantirish masalalari borasida E.G. Gaziyev M.G.Davletshin, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, R.Xolmuhamedov, Sh. Xonkeldiyev, B.R.Qodirov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.B.Alekseyev, I.P.Volkov, G.D.Gorbunov, D.A.Donsov, E.P.Ilin, Y.Y.Kiselev, Ya.A.Kolomeyev, A.N.Nikolayev, A.S.Puni, P.A.Rudik, A.B.Rodionov, L.K.Serova, A.Stambulov, V.F.Sopov, Yu.L.Xanin va boshqalar sport psixologiyasida sportchilarning psixologik tayyorgarligi va psixik holatlarini boshqarish, sport jamoalaridagi o‘zaro munosabatlar mavzusiga doir muammolarni ilmiy tadqiq etishgan.

Xorij psixologiyasida futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlar masalasi Bunker & Uilyams, Vudman & Hardy, Grobbelaar, Gill & Uilyams, Endryu, M.A Eys, Zinsser, B.Kretti, A.V.Carron, Leuens, R.Martens, R.Mezo, McGuire, & McBride, V.Orosz, M. S Price, M. R Weiss va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsion tadqiqot Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining BVF-0-01-raqamli «Uzluksiz ta’lim tizimini texnologiyalashtirishning dolzarb muammolari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi doirasida bajarilgan (2018-2022 y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi** professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda uning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning differensial namoyon bo‘lishida jamoaviy munosabatlar ta’sirini asoslash;

professional futbol jamoalarida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy psixologik omillarini aniqlash;

professional futbolchi shaxsining shakllanishida kommunikativ sifatlarga bog‘liq bo‘lgan jamoaviy munosabatlarning integral ta’sirini dalillash;

professional futbolchilarning o‘zaro munosabatlarini shakllanishida nizoli vaziyatlarning ta’sirini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayoni olingan bo‘lib, tadqiqotga O‘zbekiston proligasi vakili Zomin futbol jamoasidan 25 nafar, Jizzaxning So‘g‘diyona futbol jamoasidan 24 nafar, Qarshining Nasaf futbol jamoasidan 17 nafar, jami 66 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlarini aniqlashning psixologik jihatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda suhbat, kuzatish, sotsiometriya usullari, T.Liri–Sobchikning «Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish» so‘rovnomasi, K.Tomasning «Shaxslararo munosabatlarni aniqlash» metodikasi, R.Kettelning 16 PFL «S» variant so‘rovnomasi, «E.Yu.Zalyubovskayaning «Shaxs tomonidan jamoaning idrok etilishiga xos xususiyatlarini o‘rganish» testi, Yu.L.Xanin, A.Stambulovning «Murabbiy bilan sportchi munosabati» metodikalaridan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan r-Pirson korrelyatsiya koeffitsenti, bir omilli dispersion tahlil (ANOVA), Excel, SPSS-14 dasturidan foydalanilib, tasdiqlangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning («emotsional», «kasbiy-professional») differensial namoyon bo‘lishi ta‘sirida mashg‘ulotlardagi «moslashuv» «axloqiy xulq», «kasbiy-mahorat», «etakchilik» sifatleri bilan bog‘liq holda shakllanishi tufayli jamoaviy munosabatlarning samaradorligi asoslangan;

professional futbol jamoalarida muloqotning individual xususiyatlarini ifodalashiga ko‘ra guruhni idrok qilishning individualistik, kollektivistik tipidan farqli ravishda pragmatik tipning ustuvor namoyon bo‘lishi tufayli shaxslararo munosabatning ijtimoiy psixologik omillari dalillangan;

professional futbolchi shaxsining shakllanishiga ko‘ra ularda ijtimoiy meyorlarga amal qilish, mas‘uliyat, qat‘iylik kabi xislatlarning kommunikativ sifatlarga bog‘liq yuzaga chiqishi tufayli jamoaviy munosabatlarning integral ta‘siri isbotlangan;

professional futbolchilarning o‘zaro munosabatlarini shakllanishiga ko‘ra o‘zaro munosabat jarayonida shaxslararo ziddiyatlarda murosa, hamkorlik, vaziyatga moslashish kabi omillarning integral namoyon bo‘lishi tufayli nizoli vaziyatdan qochish va vaziyatni yumshatishga intilishning ustuvor harakterga ega ekanligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning differensial namoyon bo‘lishi darajalari aniqlashtirilgan;

professional futbol jamoalarida shaxslararo munosabatlarning individual ifodalash xususiyatlari aniqlanib, psixologik omillarning jamoaviy munosabatda psixologik omillar ta‘siri samarali ekanligi aprotatsiya qilingan;

professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan psixotrening mashg‘ulotlari ishlab chiqilgan, professional futbol jamoalari faoliyatida amaliy qo‘llanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda ilmiy asoslangan, xalqaro miqyosda tan olingan metodikalarning qo'llanilganligi, olingan empirik hamda miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik-statistikaning usullari yordamida amalga oshirilganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda keng jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati psixologiya va pedagogika fanlarining yo'nalishlarida futbol jamoalarida o'zaro munosabatlarini psixologik xususiyatlarining ahamiyatini ochib berilganligi, futbolchilarning hissiy va kasbiy sifatlarining shakllanganligi, shaxslararo munosabatlarning psixologik omillari borasida ilmiy tushuncha va tasavvurlarini kengroq anglash imkoniyati, olingan ilmiy xulosalardan umumiy psixologiya, ijtimoiy va kognitiv psixologiya hamda yosh va pedagogik psixologiya fanlari mazmunini nazariy bilimlar bilan boyitilishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan empirik ma'lumotlardan futbol jamoalarida o'zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlarini ahamiyati va jamoa faoliyatini hamda psixologik muhitni samarali shakllantirishda foydalanish mumkinligi, olingan natijalar va xulosalardan futbolchilarning o'zaro munosabatlari to'g'risidagi muayyan nazariyaning shakllanishiga xizmat qilishi, futbol jamoasi a'zolari bilan olib boriladigan psixoprofilaktik ishlarni tashkil etishda, shuningdek, «Sport psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Psixologik korreksiya» modullariga singdirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:**

Professional futbol jamoalarida o'zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida:

professional futbol jamoalarida o'zaro munosabatlarning («emotsional», «kasbiy-professional») differensial namoyon bo'lishi ta'sirida mashg'ulotlardagi «moslashuv» «axloqiy xulq», «kasbiy-mahorat», «etakchilik» sifatleri bilan bog'liq holda shakllanishi tufayli jamoaviy munosabatlarning samaradorligi asoslangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM123-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM123a-son ma'lumotnomasi). Natijada professional futbol jamoalarida o'zaro munosabatlarni darajaviy ifodalanishi xususiyatlarini tadqiq qilish imkoniyati yaratilgan;

professional futbol jamoalarida muloqotning individual xususiyatlarini ifodalanishiga ko'ra guruhni idrok qilishning individualistik, kollektivistik tipidan farqli ravishda pragmatik tipning ustuvor namoyon bo'lishi tufayli shaxslararo munosabatning ijtimoiy psixologik omillari dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM123-son buyrug'i bilan «Muloqot psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM123a-son ma'lumotnomasi). Natijada

professional futbol jamoalarida shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini psixologik jihatlarini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

professional futbolchi shaxsining shakllanishiga ko'ra ularda ijtimoiy meyorlarga amal qilish, mas'uliyat, qat'iylik kabi xislatlarning kommunikativ sifatlarga bog'liq yuzaga chiqishi tufayli jamoaviy munosabatlarning integral ta'siri isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM123-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM123a-son ma'lumotnomasi). Natijada professional futbolchilarda o'zaro munosabatlarning shakllanishida shaxs xususiyatlarini psixologik jihatlari ochib berilgan;

professional futbolchilarning o'zaro munosabatlarini shakllanishiga ko'ra o'zaro munosabat jarayonida shaxslararo ziddiyatlarda murosa, hamkorlik, vaziyatga moslashish kabi omillarning integral namoyon bo'lishi tufayli nizoli vaziyatdan qochish va vaziyatni yumshatishga intilishning ustuvor harakterga ega ekanligi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM123-son buyrug'i bilan «Muloqot psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM123a-son ma'lumotnomasi). Natijada professional futbolchilarning o'zaro munosabatlarini shakllanishida nizoli vaziyatlarning ta'siri aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning natijalari 3 ta respublika va 3 ta xalqaro konferensiyalarda muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAK dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan respublika ilmiy nashrlarida 4 ta va xorijiy jurnallarda 2 ta chop etilgan.

**Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 123 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Psixologiyada professional futbol jamoalarida o'zaro munosabatlar masalasining nazariy tahlili**» deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda chet el psixolog-olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy

tadqiqot ishlarida futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlar muammosining yoritilishi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari va O‘zbekistonda professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabat muammosi talqinini o‘rganish masalalariga e‘tibor qaratilgan, ularning nazariy tahlili yoritilgan va bob bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan. Jumladan, Respublikamiz olimlaridan R.A.Abdurasulov, R.Z.Gaynutdinov, Z.G.Gapparov, O.E.Hayitov, Z.E.Gaziyeva, E.N.Sirliyev va boshqalar tomonidan psixologiyada shaxsni shakllantirish masalasi, shu jumladan sport psixologiyasi yo‘nalishida sportchining psixologik xususiyatlari, psixologik tayyorgarligi, sport mashg‘ulotlarining sportchi shaxsi shakllanishiga ta‘siri, sport jamoalarida psixologik muhit va shaxslararo munosabat muammolari o‘rganilgan bo‘lsa, M.G.Davletshin, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, R.Xolmuhamedov, Sh.Xonkeldiyev, B.R.Qodirov, I.Qo‘shbaxtiyev, E.G.Gaziyev va boshqalar o‘quvchi-yoshlar tarbiyasining psixologik-pedagogik xususiyatlari borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan va xorij olimlaridan A.B.Alekseyev, I.P.Volkov, G.D.Gorbunov, D.A. Donsov, E.P.Ilin, Y.Y. Kiselev, Ya. A.Kolomeyev, A.N.Nikolayev, A.S.Puni, P.A Rudik, A.B. Rodionov, L.K.Serova, A Stambulov, V.F.Sopov, Yu.L.Xanin, B.Kretti, R.Martens, A.V. Carron, R.Orosz, Mezo, Leuens, Endryu, Grobbelaar, & McGuire, McBride, Gill & Uilyams; Vudman & Hardy, Zinsser, Bunker & Uilyams, M.S.Price, M.R.Weiss sport psixologiyasida sportchilarning psixologik tayyorgarligi va psixik holatlarini boshqarish, sport jamoalaridagi o‘zaro munosabatlar, futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlar masalasi mavzularida ular o‘zlarining tadqiqot ishlarida ilmiy asoslab berishga harakat qilganlar.

Dissertatsiyaning «**Professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning psixologik jihatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida professional futbol jamoasida o‘zaro munosabatlarni sotsiometrik usulda o‘rganishning ahamiyati, professional futbol jamoasida shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari, professional futbol jamoalarida futbolchilar tomonidan jamoani idrok etishining o‘ziga xosligi borasida olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan va bob bo‘yicha xulosalar berilgan.

Biz o‘z tadqiqotimizda sport jamoalarida hukm surayotgan mikromuhitni ob‘ektivroq tahlil qilish maqsadida Dj.Morening sotsiometriya metodikasi asosida sotsiometrik so‘rovnoma ishlab chiqdik va tadqiqot ishlarini o‘tkazdik. Tadqiqotimizda Superliga bosqichidagi Jizzaxning “So‘g‘diyona”, Qarshining “Nasaf” PFK o‘rinbosar futbolchilari va Proliga bosqichida faoliyat yuritadigan Jizzaxning “Zomin” jamoalari ishtirok etishdi.

Tadqiqot o‘tkazishda sportchilarning o‘zaro bir-birlari bilan munosabatlari, asosan, shaxsiy-individual hamda professional darajalari, kasbiy mahoratini aniqlashga e‘tibor qaratildi. Sotsiometrik so‘rovnoma to‘rtta savoldan iborat bo‘lib, unda sotsiometrik mezon sifatida **funksiyali**: Jamoa sardorini saylash uchun guruhdan kimlarni taklif etasiz?, **amaliy-kommunikativ**: Qaysi jamoadoshingiz bilan musobaqalarda birga o‘ynashni xohlaysiz?, **hissiy**: Jamoadoshlaringizdan tug‘ilgan kuningizga kimlarni taklif qilgan bo‘lar edingiz?, **amaliy**: O‘yin taktikasini



tanlanma amalga oshirilganligiga guvoh bo'ldik. Shunga asoslanib aytish mumkinki, Zomin professional futbol jamoasida sportchilarning kasbiy sifatlariga ko'proq e'tibor qaratilar ekan. Balki, bu jihatlar jamoalar shakllanishiga bog'liq holda namoyon bo'layotganligiga asoslanishi mumkin. Umuman olganda sportchilarning ampuasi sport jamoasidagi o'zaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatmas ekan.

Tadqiqot doirasida professional futbol jamoalarida o'zaro munosabatlarning psixologik xususiyatini o'rganish uchun T.Liri-Sobchikning modifikatsiyalashtirilgan variantidan foydalandik. Tadqiqotga professional futbol jamoalaridan Zomin, Jizzaxning So'g'diyona, Qarshining Nasaf professional futbol jamoalarining o'rinbosar futbolchilari, jami 66 nafar sportchilar jalb etildi. Sportchilarning yoshi 17-27-yoshni tashkil qildi. Tadqiqotning dastabki statistik ko'rsatkichlar tahlili bo'yicha shaxslararo munosabatlarning mazmuni quyidagi 1-jadvalda aks etgan.

**Hukmron-liderlik oktanti bo'yicha** jamoalarda aksariyat sinaluvchilar shaxslararo munosabatlarda tanqidlarni qabul qila olmaslik, o'zini yuqori baholash kabi shaxs sifatlarini namoyon etmoqda. Bu holat jamoadagi o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlar tez-tez sodir bo'lib turishi bilan, qolaversa nisbatan kichik guruhligi, bir-birlarini yaxshi bilishi va bir-birlari oldida ma'suliyatning ortishi bilan izohlashimiz mumkin.

### 1-jadval.

#### T.Liri-Sobchik so'rovnomasi bo'yicha olingan statistik natijalar, n=66

Oktant	Futbol jamoasi	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Minimal	Maksimal
Hukmron-lider	Zomin	8,5600	3,13688	3,00	15,00
	So'g'diyona	9,3750	3,07603	4,00	15,00
	Nasaf	10,2941	3,53137	3,00	15,00
Mustaqil – ustuvorlik	Zomin	7,0800	1,93477	3,00	11,00
	So'g'diyona	7,2083	1,38247	4,00	10,00
	Nasaf	7,4118	1,62245	5,00	11,00
To'g'ri – tajovuzkor	Zomin	7,2800	2,20832	3,00	11,00
	So'g'diyona	7,0833	2,06243	2,00	10,00
	Nasaf	7,2353	2,75067	4,00	14,00
Ishonchsizlik – skeptiklik	Zomin	6,0800	3,41467	1,00	13,00
	So'g'diyona	5,2083	3,10650	1,00	10,00
	Nasaf	5,0588	2,98895	1,00	11,00
Itoatkor – tortinchoqlik	Zomin	8,3200	3,53223	2,00	14,00
	So'g'diyona	8,0000	3,03602	3,00	13,00
	Nasaf	7,4706	2,67202	3,00	12,00
Bog'liqlik – bo'ysunuvchanlik	Zomin	8,2400	3,11288	1,00	14,00
	So'g'diyona	7,5000	3,00724	2,00	13,00
	Nasaf	7,2941	2,28486	4,00	11,00
Hamkorlik – konvensiallik	Zomin	10,6800	3,36303	1,00	16,00
	So'g'diyona	9,5417	2,84344	4,00	16,00
	Nasaf	10,2941	2,86716	5,00	16,00
Mas'uliyatli – bag'rikenglik	Zomin	11,1600	3,73809	3,00	15,00
	So'g'diyona	10,7917	3,47637	4,00	16,00
	Nasaf	10,5882	4,00092	4,00	16,00

Izoh: p<0,05\*, p<0,01\*\*

**Mustaqil–ustuvorlik oktanti** bo'yicha sinaluvchilar shaxslararo munosabatlarning ishonchli, mustaqil, raqobatchilik uslubidan foydalanishar ekan. Demak aytishimiz mumkinki, ushbu oktant bo'yicha sportchilarda bir-birlariga o'xshash xususiyatlar namoyon bo'ldi.

**To'g'ri–tajovuzkor oktanti** bo'yicha sportchilar shaxslararo munosabatlarda samimiylik, erkinlik, to'g'rilik, maqsadga erishish yo'lida qat'iylik singari sifatlarni namoyon etishi ma'lum bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki ushbu otnant natijalari har uchala futbol jamoasida bir-biriga o'xshash ekan.

**Mas'uliyatli–bag'rikenglik oktanti** bo'yicha har uchala futbol jamoasi sportchilarida atrofdagilarga yordam berishga tayyorlik, mas'uliyat hissi rivojlanganligi va yuqori ijtimoiy ustanovkalarga intilish namoyon bo'layotganligini kuzatishimiz mumkin. Umuman olganda, ushbu metodikaning keyingi to'rtta oktantidagi natijalar dastlabki to'rtta oktantga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, har uchala jamoada ham sportchilarida konform tendensiyalar shakllanib borayotganligidan dalolat beradi. Bilamizki, jamoaviy sportda konformizm juda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotda Ye.V.Zalyubovskaya taklif etgan metodikadan foydalanib, sport jamoalaridagi o'zaro munosabatlarda individ (sportchi) tomonidan guruh (futbol jamoasi) qanday idrok etilayotgani va ijtimoiy persepsiyaning umumiy samaradorlikka ta'sirini aniqlandi, natijalarning dispersion tahlili 2-jadvalda berilgan.

## 2-jadval.

### Professional futbol jamoalar futbolchilarida jamoani idrok etish ko'rsatkichlarining dispersion tahlili, (ANOVA)


Guruh (jamoani idrok qilish tipi)	Futbol jamoasi	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	F	Ishonch darajasi p<0,05
Individualistik	Zomin	4,8000	1,63299	1,224	,301
	So'g'diyona	4,5417	1,99955		
	Nasaf	5,4118	1,62245		
Kollektivistik	Zomin	5,6800	1,67631	2,249	,114
	So'g'diyona	4,8750	1,72734		
	Nasaf	4,7647	1,20049		
Pragmatik	<b>Zomin</b>	<b>3,5200</b>	<b>1,32665</b>	<b>2,943</b>	<b>,050*</b>
	<b>So'g'diyona</b>	<b>4,5833</b>	<b>1,90917</b>		
	<b>Nasaf</b>	<b>3,8235</b>	<b>1,33395</b>		

Izoh:p<0,05\*, p<0,01\*\*

Jadvaldan ko'rinadiki, Zomin professional futbol jamoasida Kollektivistik tip yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan bo'lsa, **So'g'diyona** professional futbol jamoasidagi o'zaro munosabatlar eng yuqori ko'rsatkich **Pragmatik** tipga xosligi, **Nasaf** futbol jamoasida esa eng yuqori ko'rsatkich **Individualistik** tipda kuzatildi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan natijalarga asoslanib, aytishimiz mumkinki, sportchilar tomonidan guruhni idrok qilishning **Pragmatik** shkalasida sezilarli farqlar

( $F=2,943$ ;  $p<0,05$ ) kuzatildi. Shunga ko‘ra, aksariyat sportchilar tomonidan guruh qanchalik foydaligiga bog‘liq ravishda idrok etiladi va baholanadi. Aksariyat sportchilar jamoadagi mutasaddi, muayyan masalalar bo‘yicha zarur axborotni va yordamni bera oladigan vakillarini ma‘qul ko‘radi va ular bilan aloqaga kirishishni afzal ko‘radi. Sportchilar tomonidan guruh (jamoani) idrok qilish ko‘rsatkichlaridagi farqlarni quyidagi 2-rasmda ifodalangan.



**Rasm 2. Guruhni idrok etishning Pragmatik shkalasidagi farqlarning ifodalanishi, E.V.Zalyubovskaya so‘rovnomasi asosida**

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish**» deb nomlangan bo‘lib, professional futbolchilarda o‘zaro munosabatlarning shakllanishida shaxs xususiyatlarining ahamiyati, professional futbolchilarda o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga nizoli vaziyatlarning ta’siri, professional futbolchilarda o‘zaro munosabatlarni shakllantirishga oid profilaktik tadbirlarni tashkil etish ishlari tahlil qilingan.

Futbol faoliyatining jamoaviy tabiati do‘stlik, sheriklik, o‘zaro yordam tuyg‘usini tarbiyalaydi, mas’uliyat hissi, sheriklar va raqiblarga hurmat, intizom, faollik kabi qimmatli axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi. Har bir futbolchi o‘zining shaxsiy sifatlarini namoyon qilishi mumkin: mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik. Shu bilan birga, o‘yin shaxsiy intilishlarni jamoa manfaatlariga bo‘ysundirishni talab qiladi.

Tadqiqotda professional futbol jamoalari a‘zolarining o‘zaro munosabatlarda sportchi shaxsinig psixologik xususiyatlarini o‘rganishda R.Kettelning 16 PFL «S» variant so‘rovnomasidan foydalandik. Tadqiqotda qo‘llanilgan so‘rovnoma natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib aytish joizki, A –«**Odamovi va muloqotga moyil**» omili bo‘yicha tadqiqotda ishtirok etgan sportchilar muloqotga tez va oson kirisha oladigan, muloqotga moyillik darajasini yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. B - «**Intellekt**» omili bo‘yicha sportchilarda aniqlik va ba’zi

hollarda tafakkurning rigidligi xususiyati namoyon bo'lmoqda. S –«**Hissiy beqarorlik – hissiy barqarorlik**» omili bo'yicha sportchilarda o'z his-tuyg'ularini va kayfiyatini boshqara olishi, o'zini tuta bilish, kayfiyatining realligi, shuningdek, guruhiy qoidalar va talablarga oson bo'ysunishini kuzatishimiz mumkin. E – «**Bo'ysunuvchanlik va ustunlik**» omili bo'yicha sportchilar o'z mustaqilligini himoya qilishda oshkora agressivlik ko'rsatmaydi, shu bilan birga, yuqori turuvchi shaxslar oldida quldek bo'lishni ham xohlamaydi.

3-jadval.

**R. Kettelning 16 PFL «S» variant so'rovnomasi natijalari, n=66**

Omil	Minimal	Maksimal	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimet-riya	Ekssess
<b>A</b>	3,00	12,00	8,1061	2,30804	-,273	-,543
<b>B</b>	1,00	7,00	3,0909	1,43288	,418	-,345
<b>C</b>	2,00	12,00	6,6364	1,88628	,576	,601
<b>E</b>	1,00	12,00	5,6667	2,06311	,475	,550
<b>F</b>	,00	10,00	5,6212	1,65264	-,062	1,403
<b>G</b>	4,00	12,00	8,0303	1,94517	-,316	-,755
<b>H</b>	5,00	10,00	7,6818	1,20459	-,117	-,430
<b>I</b>	,00	10,00	6,0606	1,93652	-,023	,615
<b>L</b>	1,00	9,00	5,6667	1,58195	-,124	,498
<b>M</b>	1,00	11,00	5,9242	1,97142	,133	,073
<b>N</b>	3,00	10,00	5,8939	1,83243	,316	-,569
<b>O</b>	1,00	10,00	6,7424	2,09256	-,364	-,339
<b>Q1</b>	3,00	12,00	7,3485	1,98062	,146	-,420
<b>Q2</b>	1,00	9,00	5,4697	1,67534	,024	,375
<b>Q3</b>	3,00	11,00	6,8333	1,95789	,101	-,593
<b>Q4</b>	2,00	10,00	6,1061	1,85745	-,115	-,556
<b>MD</b>	2,00	12,00	7,3939	2,02962	-,445	,258

F–«**O'zini tuta olish – ekspressivlik**» omili bo'yicha futbolchilarda ehtiyotkorlik, aql bilan ish tutish, muloqot jarayonida boshqalar bilan ehtiyotkorona munosabat o'rnatishga bo'lgan xususiyat namoyon bo'ldi. G–«**Hissiyotlarga beriluvchan – xatti harakatlarning yuqori normativligi**» omili bo'yicha sportchilardagi bu natija ijtimoiy me'yorlarga amal qilish, maqsadga erishishda qat'iy harakat, faoliyatga mas'uliyat va aniqlik bilan yondashishga harakat qilish xususiyatlaridan dalolat beradi. N–«**Ijtimoiy mardlik (dadillik-tortinchoqlik)**» omili

bo'yicha sportchilarda natija yuqori ko'rsatkichni namoyon qilib, buholat ijtimoiy faol va tavakkal qilishga moyillilik, o'zini erkin tutish xosdir.

Mazkur omil natijalari sportchilarda ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan reaktivlikni va ijtimoiy aloqalarga nisbatan faollikni bildiradi. I–«**Qattiqqo'llik–sezgirlik**» omili bo'yicha sportchilarda o'ziga bo'lgan ishonch, realistlik, amaliylik, ba'zi xollarda esa, qattiqqo'llik kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Ba'zan esa, atrofdagilarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lishi mumkin. L–«**Ishonch–gumon**» omili bo'yicha sportchilarning ochiq, ishonuvchan, boshqa insonlar bila muloqotda sabr toqatli, har qanday vaziyatlarga osonlik bilan moslashib keta olishlari, insonlar bilan ijobiy munosabatda bo'la olishlari, jamoada yaxshi ishlashlari hamda hech kimga hasad qilmasliklaridan dalolat beradi. O–«**O'ziga ishonch–havotirlanish**» omili bo'yicha aytish joizki, mazkur omil bo'yicha olingan natijalar sportchilardagi sovuqqonlik, xotirjamlik va o'ziga nisbatan ishonch kabi xususiyatlarni namoyon qilmoqda. Q<sub>3</sub>–**“Past darajadagi o'zini nazorat qilish – Yuqori darajadagi o'zini nazorat qilish”** omili bo'yicha ko'rsatkichlar asosida aytish mumkinki, sportchilarda o'zini nazorat qilish kuchli rivojlanganligi, ijtimoiy talablarni me'yoriga yetkazib bajarish, o'zining emotsiyalarini yaxshi boshqara olish, o'zi haqidagi fikrga amal qilish, boshlagan ishini oxirigacha yetkazib ko'yishga hamda maqsad sari intilish kabi xususiyatlarda namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqotda futbol jamoalarida ishchanlik yoki kommunikativlik sifatlaridan qaysi biri ustun ekanligini aniqlash maqsadida shaxslararo munosabatlar jarayonida nizoli vaziyatlarga sportchilarning munosabatni o'rganish uchun K.N.Tomas so'rovnomasidan foydalandik, natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Zomin professional futbol jamoasida raqobatdan farqli o'laroq, o'z manfaatlarini boshqa odamlarning manfaati uchun qurbon qila olish (vaziyatga moslashish usulida) ustanovkalari yaxshi shakllanganligidan dalolat beradi. Bu esa jamoaviy o'yin hisoblangan futbolda juda ham muhim xususiyat sanaladi. Umaman olganda, jamoadagi o'zaro munosabatlarning kechishi ko'proq ziddiyatli munosabatlardan ko'ra hamkorlikka asoslangan jamoaviy faoliyatga yo'nalganligi, o'z pozitsiyasini himoya qilishda ba'zan raqobatga kirishishga xos bo'lgan munosabatlar tizimi mavjud ekanligini kuzatishimiz mumkin. Lekin, sportchilarning jamoaga moslashuvi va jamoada o'rnatilgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga amal qilishga bo'lgan intilishi ham yuqori darajada deb aytishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida So'g'diyona futbol jamoasida o'zaro munosabatlarning kuchli raqobat asosiga xos tarzda kechishi kuzatildi. Raqobat shkalasining o'rtacha ko'rsatkichi 6,79 balni tashkil qildi. Demak, jamoada raqobat muhiti negizida o'zaro ziddiyatlar tez-tez sodir bo'lib turishi hamda jamoa a'zolari guruh ichida referent guruh shaklida ishtirok etib, o'z pozitsiyalarni mustahkamlashga harakat qilishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu jamoada ham Vaziyatga moslashish shkalasida yuqori ball kuzatilib, jamoada bu raqobatdan farqli o'laroq, o'z manfaatlarini boshqa odamlarning manfaati uchun qurbon qila olish ustanovkalari yaxshi shakllanganligidan dalolat beradi. Umaman olganda, jamoadagi o'zaro munosabatlarning kechishi ko'proq ziddiyatli munosabatlar bilan birga

hamkorlikka asoslangan jamoaviy faoliyatga, jamoa manfaatini umumiy manfaat sifatida qabul qilish va bu jamoada o'rganilgan ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish mavjud ekanligini kuzatishimiz mumkin.

4-jadval.

**Shaxslararo munosabatlarni o'rganish K.Tomas so'rovnomasining dispersion tahlili, (ANOVA)**


Shkala	Futbol jamoasi	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	F	Ishonch darajasi p<0,05
Raqobat	Zomin	6,4400	2,38188	,250	,780
	So'g'diyona	6,7917	2,10546		
	Nasaf	6,3529	1,93459		
Hamkorlik	Zomin	5,2400	1,78606	,826	,442
	So'g'diyona	5,8750	1,82525		
	Nasaf	5,2353	2,27842		
<b>Murosa qilish</b>	<b>Zomin</b>	<b>6,4000</b>	<b>1,87083</b>	<b>3,198</b>	<b>,048*</b>
	<b>So'g'diyona</b>	<b>5,2500</b>	<b>1,56733</b>		
	<b>Nasaf</b>	<b>6,4118</b>	<b>1,93839</b>		
Tortishuvdan kochish	Zomin	4,8400	2,13464	,214	,808
	So'g'diyona	4,9167	1,76725		
	Nasaf	5,2353	2,04724		
Vaziyatga moslashish	Zomin	7,0800	1,93477	,202	,817
	So'g'diyona	7,1250	1,67624		
	Nasaf	6,7647	2,13686		

Izoh:p<0,05\*, p<0,01\*\*

Nasaf futbol jamoasida shaxslararo munosabat bo'yicha tadqiqot natijalari Raqobat shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 6,35 balni tashkil etdi, Hamkorlik 5,23 balni, Murosa qilish 6,40 balni, Tortishuvdan qochish 6,41balni, Vaziyatga moslashish 6,76 balni tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur sport jamoasida ham o'zaro munosabatlarda murosaga erishish va vaziyatga moslashish shkalalarida yuqori ballar qayd etilib, jamoadagi o'zaro munosabatlarda kichik guruhlarga xos bo'lgan qonuniyatlar doirasida,ya'ni kichik guruhlarda o'zaro aloqalarda doimo aniqlik bo'lishini talab qiladi va bu ko'pincha ziddiyatlarning ham tez-tez namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotda K.Tomas so'rovnomasidan olingan natijalarning o'zaro munosabatlarda qay darajada kechishini yanada aniqroq ko'rsatish uchun bir omilli dispersion tahlilini amalga oshirib, jamoalardagi futbolchilarning o'zaro munosabatlarda nizoli vaziyatga munosabat tavsifi nuqtai nazaridan farqlarni tahlil qilishga harakat qildik. Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rinib turibdiki, **Murosa qilish** shkalasida ishonch darajasidagi farqlar (**F=3,19; p<0,05**) kuzatildi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, Nasaf va Zomin futbol jamoalarida murosachilik shkalasida yuqori ko'rsatkichlar namoyon bo'lib, ushbu jamoalar shaxslararo ziddiyatli masalalarda murosa yo'li bilan vaziyatni yumshatishga harakat qilard

ekanlar. Murosachilik shkalasidagi farqlarni quyidagi 3-rasmda yanada aniqroq berilgan.



**Rasm 3. K.Tomass so'rovnomasida "Murosa qilish" shkalasining futbol jamoalaridagi ko'rsatkichlari**

Umuman olganda, yuqorida ko'rib o'tgan nizoli vaziyatga munosabat shkalalarida barcha futbol jamoalarida Vaziyatga moslashish shkalasi yuqori ko'rsatkichlarda namoyon bo'ldi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, sportchilarda jamoa manfaatlariga bo'ysunish yuqori darajada namoyon bo'lmoqda.

#### 5-jadval.

#### Futbol jamoalari o'zaro munosabatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish psixoprofilaktika dasturi

№	Omillar	Mashg'ulot mazmuni
1	Raqobatchilik holati profilaktikasi	1. Davra suhbatlari
2	Hamkorlikni rivojlantirish profilaktikasi	1. O'zaro hamkorlikka chorlovchi davra suhbatlari; 2. Hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi psixotreninglar.
3	Tortishuv holatini korreksiyalash	1. Davra suhbatlari 2. Psixotrening
4	Ziddiyatli vaziyatlar holatini korreksiyalash	1. Davra suhbatlari 2. Psixotrening
5	Q4-"Bo'shashganlik-qo'zg'aluvchanlik" holatini korreksiyalash	1. Davra suhbatlari 2. Psixotrening

Tadqiqot davomida aniqlangan va professional futbolchilarning bir-birlari va murabbiylari bilan o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ba’zi ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish hamda hamkorlikdagi faoliyat asosida samaradorlikni oshirish maqsadida profilaktik tadbirlarni ishlab chiqishni maqsad qilib qo‘ygan edik va ushbu maqsadimizni amalga oshirish hamda futbol jamoalaridagi o‘zaro munosabatlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi profilaktik tadbirlar tizimi ishlab chiqildi.

Futbol jamoalarida kechadigan o‘zaro munosabatlar jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni bartaraf etib borish uchun psixoprofilaktik ishlarni tashkil etish bo‘yicha psixoprofilaktik ishlar dasturini ham ishlab chiqdik.

Psixoprofilaktik dasturni amalga oshirish jarayonida futbolchilar uchun “Do‘st bilan obod uying”, “O‘zligingni angla”, “Hayotni sev”, “O‘zaro hurmat va mulozamat kuni”, “Mening murabbiyim”, “Avlodlar o‘rtasidagi nizo” kabi mavzularda qiziqarli dasturlar, bahs-munozaralar, treninglar (faoliyatga chorlovchi va zo‘riqlashlarni bartaraf etishga qaratilgan) o‘tkazish maqsadga muvofiq sanaladi.

## XULOSA

«Professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlari» mavzusidagi tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Professional futbol jamoalaridagi o‘zaro munosabatlar muammosi kam o‘rganilgan muammolardan bir hisoblanadi. Shu boisdan kichik guruh sifatida futbol jamoalaridagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish orqali muvaffaqiyatga erishish, sportchilarni tayyorlashda va ularda jamoaviy ruhiyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik ta’sir choralari kengroq va chuqurroq o‘rganish muhim ahamiyatli ekanligi kuzatildi.

2. Professional futbolchi o‘zaro munosabatlarida sportchilarning yoshi, tajribasi, kasbiy mahorati uning jamoadagi ijtimoiy statusiga ta’sir qilishi ma’lum bo‘lib, sportchilardagi kasbiy mahorati bilan bog‘liq kasbiy sifatlarining jamoada ijobiy qabul qilinishi tufayli jamoaviy muvafaqqiyat individual muvafaqqiyatga yetaklashi tadqiqotda aniqlandi.

3. Sportchilar shaxslararo munosabatlarida o‘zini anglash bilan bog‘liq real “Men”i jamoaviy faoliyat ta’siri ostida ideal “Men” sifatlarining (intilish) rivojlanib, shaxs sifatida takomillashib borishiga yo‘l ochishida ijobiy ta’sir etishi va samara berishi namoyon bo‘ldi.

4. Professional futbolchilarda o‘zaro munosabatlarning («emotsional», «kasbiy-professional») differensial namoyon bo‘lishi ta’sirida mashg‘ulotlardagi «moslashuv» «axloqiy xulq», «kasbiy-mahorat», «yetakchilik» sifatleri bilan bog‘liq holda shakllanishi tufayli jamoaviy munosabatlarining samaradorligi asoslandi.

5. Professional futbol jamoalari futbolchilarida muloqotning individual xususiyatlarini ifodalashiga ko‘ra guruhni idrok qilishning individualistik, kollektivistik tipidan farqli ravishda pragmatik tipning ustuvor namoyon bo‘lishi tufayli shaxslararo munosabatning ijtimoiy psixologik omillari dalillandi.

6. Professional futbolchi shaxsining shakllanishiga ko'ra ularda ijtimoiy meyorlarga amal qilish, mas'uliyat, qat'iylik kabi xislatlarning kommunikativ sifatlarga bog'liq yuzaga chiqishi tufayli jamoaviy munosabatlarning integral ta'siri isbotlandi.

7. Professional futbolchilarning o'zaro munosabatlarini shakllanishiga ko'ra o'zaro munosabat jarayonida shaxslararo ziddiyatlarda murosa, hamkorlik, vaziyatga moslashish kabi omillarning integral namoyon bo'lishi tufayli nizoli vaziyatdan qochish va vaziyatni yumshatishga intilishning ustuvor harakterga ega ekanligi dalillandi.

8. Professional futbol jamoalarida o'zaro munosabatlarning tabiati ko'p jihatdan murabbiylarning kasbiy yetukligiga bog'liqdir. Sportchilar kutilmasidagi murabbiy shaxsining jozibadorligi sportchilarda o'z faoliyatidan qoniqish shakllanishiga olib kelishi bilan bir qatorda, sportchi va jamoaning muvafaqqiyatini ta'minlashga asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalari aslosida quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Futbol jamoasiga yangi kelgan sportchilarning moslashishi, o'zini jamoa a'zosi sifatida erkin his qilishi uchun murabbiy va jamoa liderlari unga o'rtoq topishda ko'maklashishi ijtimoiy-psixologik omil sifatida ahamiyatlidir.

2. Sportchilar shaxslararo munosabatlarida tanqidlarga toqatsizlik, o'zini yuqori baholash ko'rsatkichlarini ijobiylashtirish uchun ularda meyordagi tanqid hissi (o'z-o'ziga baho berish)ni tarbiyalash bo'yicha pedagogik-psixologik tadbirlarni amalga oshirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Sportchilar o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etib borish uchun, ularda hamkorlik, umumiy maqsadga va jamoaviy faoliyatga yo'naltirilgan muloqot strategiyalarini rivojlantirish kerak.

4. Jamoadagi o'zaro munosabatlarda muloqotga moyillik omilining ahamiyatini hisobga olgan holda sportchilarda boshqalar bilan muloqot va hamkorlik qilishga, ijtimoiy faollilik, samimiylik xususiyatlarini rivojlantirishga hamda «Intellekt» omilidagi quyi ko'rsatkichlarni, «Bo'shashganlik–qo'zg'aluvchanlik» omilidagi zo'riqishni bartaraf etish yuzasidan psixokorreksion tadbirlarni amalga oshirib borish tavsiya etiladi.

5. Sportchilarda o'z jamoasini idrok qilishning individual va pragmatik xususiyatlarini o'zaro munosabatlarda hamda jamoani yaxlit bir qadriyat va maqsadlarga yetaklovchi tizim sifatida idrok qilishiga to'sqinlik qilishini inobatga olib, sportchilarda jamoaviylik xususiyatlarni rivojlantirib borish zarur chora sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ  
PHD.03/30.12.2021.PED.26.02 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**МАЖИДОВ ЖАСУР БАХТИЯРОВИЧ**

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ В  
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ФУТБОЛЬНЫХ КОМАНДАХ**

**19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФСКИХ НАУК  
(PhD) ПО ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент-2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/P56.**

Диссертация выполнена в Джизакском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации распространён на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на сайте Ученого совета ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** **Абдурасулов Рустам Абдураимович**  
доктор психологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Хаитов Ойбек Эшбоевич**  
доктор психологических наук, профессор

**Баратов Хумоюн Шарифович**  
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

**Ведущая организация:** **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета за номером PhD.03/30.12.2021.П.26.02 при Ташкентском государственном педагогическом университете \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_\_ часов. (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32; факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz) ).

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Ташкентского государственного педагогического университета. (Зарегистрирован под \_\_\_\_\_ номером.) (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзорский район, улица Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32).

Автореферат диссертации распространён \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(Протокол цифрового реестра \_\_\_\_\_ за «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ за 2024 год).

**Ф.А.Акрамова**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор психологических наук (DSc),  
профессор

**Н.Б.Атабаева**  
Учёный секретарь Научного  
совета по присуждению ученых  
степеней, доктор психологических  
наук (DSc), профессор

**З.Т.Нишонова**  
Председатель Научного  
семинара при Научном совете по  
присуждению ученой степени,  
доктор психологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность темы диссертации и её необходимость.** Футбол, как один из самых популярных видов человеческой деятельности в мире, требует волевого воспитания личности футболиста, физической и психологической подготовки в целях повышения эффективности его деятельности, как сильного социального явления, влияющего на коллективную взаимную солидарность. Следует отметить, что в Заявлении Генеральной Ассамблеи ООН подчеркивается «...важность укрепления физического, интеллектуального и психического здоровья детей посредством спорта...»<sup>3</sup>. В связи с этим учеными мира уделяется внимание проблеме влияния психологических особенностей взаимоотношений в профессиональных футбольных командах как объекту научно-теоретического изучения вопросов улучшения психологического климата в футбольных командах.

В высших учебных заведениях и научно-исследовательских центрах мира особое внимание уделяется научным исследованиям не только вопросам здоровья человека, но и психологического влияния спорта, формирования у спортсменов волевых и нравственных качеств и к изучением психологических факторов воспитания спортсменов. В связи с этим наблюдается необходимость научного исследования социально-психологических факторов и методов психологического воздействия на психологическую обстановку в профессиональных футбольных командах, на состояние взаимоотношений игроков, на роль влияния отношений тренера и футболиста на коллективную среду и успехам команды.

В последние годы в республике были проведены масштабные реформы по развитию узбекского футбола, создана необходимая нормативно-правовая база: «...широкое вовлечение молодежи в физкультуру и спорт, охват массовыми и командными видами спорта, расширение детских и юношеских спортивных школ в отдаленных деревнях...»<sup>4</sup>, следовательно, определение этих приоритетов может стать важной основой для научного исследования психологических особенностей взаимодействия в профессиональных футбольных командах.

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени реализации мер стратегических задач, поставленных решением ряда нормативных правовых актов, связанных с данной темы исследования: Закон Республики Узбекистан от 1 мая 2023 года № УП-837 «О Конституции Республики Узбекистан», Указы Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», от 4 декабря 2019 года № УП-5887 «О мерах по

---

<sup>3</sup> Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН № 65/4 от 18 октября 2010 г. «Спорт как инструмент содействия образованию, здоровью, развитию и миру»

